

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

3



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

28 705

121,8 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

27 246

119,7 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar

2 889


72,0 %



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

4



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1-iyun holatiga ko'ra)

5



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

6

24
aksiyadorlik
jamiyati

136
unitar
korxona

309
boshqalar

5 147
oilaviy korxona

7 389
xususiy korxona

10 519
mas'uliyati cheklangan
jamiyat

23 524
tijorat korxonalarini

Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2021- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2021- yil yanvar-may oylarida 2 889 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 467 ta, xususiy korxonalar – 531 ta, oilaviy korxonalar – 789 ta, muassasalar – 47 ta va boshqalar – 55 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra 5 636 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 825 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 147 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 496 taga yoki 1,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 789 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 546 taga yoki 0,3 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 10 967 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 402 taga yoki 128,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 519 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 190 taga yoki 126,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 467 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 486 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

9



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 510 tani tashkil etib, ulardan 480 tasi yoki 93,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 108 taga yoki 126,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 78 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	4 199	5 125	6 714	8 329	10 519
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	314	527	693	997	1 506
Sanoat	672	808	1 109	1 297	1 632
Qurilish	698	848	1 087	1 460	1 692
Savdo	1 323	1 526	2 070	2 583	3 341
Tashish va saqlash	473	504	558	610	633
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	161	190	261	330	388
Axborot va aloqa	70	72	92	105	128
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	34	56	80	95	135
Boshqa turlar	454	594	764	852	1 064

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	59	89	262	385	480
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9	20	74	96	110
Sanoat	32	37	70	103	126
Qurilish	1	4	14	21	36
Savdo	5	16	66	116	152
Tashish va saqlash	5	4	7	6	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	1	12	19	21
Axborot va aloqa	1	1	1	2	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1	3	4	7
Boshqa turlar	4	5	15	18	20

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)**

13



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

14

19

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	480	138	342
Termiz sh.	240	31	209
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	21	5	16
Bandixon	1	-	1
Boysun	8	6	2
Muzrabot	16	6	10
Denov	17	10	7
Jarqo'rg'on	14	8	6
Qumqo'rg'on	12	6	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	18	9	9
Termiz	49	20	29
Uzun	35	16	19
Sherobod	18	8	10
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)


15



2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,1 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Termiz (6,6 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,1 %), Qiziriq (5,0 %), Boysun (4,8 %), Angor (4,8 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (4,0 %) va Bandixon tumanlarida (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2021- yil yanvar-may oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (19,0 %), Denov (10,6 %), Sherobod (8,6 %), Sho'rchi (7,5 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Qumqo'rg'on (6,6 %), Uzun (5,8 %), Sariosiyo (5,3 %), Angor (5,2 %), Termiz (4,9 %), Boysun (4,8 %), Muzrabot (4,5 %), Qiziriq (4,2 %), Bandixon (3,2 %) va Oltinsoy (2,3 %) ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni


(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

16



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,4 %), Termiz (9,1 %), Denov (9,0 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Sherobod (6,2 %), Boysun (5,7 %), Sho'rchi (5,3 %), Qumqo'rg'on (5,0 %), Qiziriq (4,9 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosiyo (4,1 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,6 %) va Bandixon (1,8 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-may oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar-may oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Uzun (11,7 %), Denov (11,5 %), Termiz sh. (10,0 %), Sariosiyo (9,8 %), Sherobod (7,7 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Qumqo'rg'on (6,2 %), Angor (6,1 %), Sho'rchi (5,3 %), Muzrabot (5,1 %), Qiziriq (4,4 %), Boysun (4,3 %), Bandixon (4,1 %), Oltinsoy (3,6 %) va Termiz (3,0 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar-may oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS, Bayroq, Gerb, Madhiya, Shaxsiy kabinet, and social media icons. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are links for O'zbek, Rossijskij, English, ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, KONTAKTLAR, and Qidirish. A search bar is present on the right. The central content area features a sidebar titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports like El'on qilish taqimisi, Metama'lumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The main panel shows a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" with options like Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Uslubly materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. A sub-section titled "STIR kodini kiritning" is shown with a placeholder "Rasmidagi kodni kiritning" and a button "Qidiruv". To the right, there is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to Aholini ro'yxtatga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-relezzlar, Choraklik natijalar, Nashriar – statistika haqida, Uslubly materiallar, Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, and a note about using Microsoft Windows.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**